



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Tohirova Mohigul Umir qizi

SamDU doktoranti

KO`ZI OJIZ VA ZAIF KO`RUVCHI SHAXSLAR
PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ko`zi ojiz va zaif ko`rvuchi shaxslar psixologiyasining rivojlanish qonuniyatlari nazariyasi qisqacha bayon qilinadi. Shuningdek, ularda ijtimoiylashuv jarayonlarining kechishi, ularning ta'lim olishdagi, ruhiy rivojlanishdagi murakkabliklarini yoritib berishga harakat qilamiz.

Kalit so`zlar: vizual buzilish, tiflopsixologiya, integratsiya, psixofiziologiya, tug`ma ko`zi ojiz, orttirilgan ko`zi ojiz.

Ko`rishda nuqsoni bor go`dak dunyoga kelishi bilan uni ruhiy to`sinqalar qarshi oladi. Jumladan, dastlab u onasining tovushini eshitadi ammo uni ko`ra olmaydi, u otasi va boshqa yaqinlari bilan ham huddi shu holatni boshdan o`tkazadi. To`g`ri go`dak uchun bu fojiya emas, hatto u bu holatni yuzaki ham anglamas ehtimol ammo uning ruhiy rivojlanishiga fan tili bilan aytganda psixologik taraqqiyotiga birinchi oqsalish qadami qo`yiladi. U o`zi sevgan o`yinchoqni ushlaganida va uning rangini ko`rmaganida, ana o`sha o`yinchog`ini topaolmay qolganida o`zining tengdoshi yoki aka-opasi topib bergenida, ilk qadamlarini tashlagan go`dak yurayotgan yo`lini ko`rmaganida va kutilmagan to`sinqqa uchrab qoqilganida, albatta u o`z hayotida bu faqat boshlanishi ekanligini hali anglamagan, shu holatni anglaganida, tengdoshlari o`ynayotgan quvlashmachoq va shu kabi boshqa bir qator harakatli o`yinlarni o`ynay olmaganida, o`zi birga katta bo`lgan tengdoshlari birgalikda mакtaba borishayotganida u hatto ota-onasidan uzoqda maxsus mакtab internatida o`qishni



boshlaganida bu jajji vujudning mitti yuragidan nimalar o`tar ekan, ana shu mitti yurak qanday ruhi zarba olar ekan. Endi shu holatni psixologik nuqtai-nazardan tahlil qilib ko`raylikchi.

Ko`zi ojiz va zaif ko`rvuchi shaxslarning psixologiyasini o`rganish muammosini hal qilish uchun ba`zi psixofiziologik jihatlarga batafsil to`xtalish zarur. Ko`zi ojizlar va ko`rish qobiliyati past bo`lgan shaxslar psixikasi odatdagidek subyekt va obyekt birligi ya`ni psixikaning normal rivojlanish qonuniyatlarini o`zida aks ettirgan ta`rifi bo`yicha rivojlanadimi? Ko`zi ojiz shaxslar psixikasini o`rganish sog`lom shaxslar psixikasini o`rganish bilan taqqoslaganda quyidagi xususiyatlar bo`yicha murakkablashadi:

- Ko`zi ojiz va zaif ko`rvuchi shaxslar psixikasining normal rivojlanishiga ko`rish nuqsoni bilan bog`liq bo`lgan turli voqeа-hodisalar sezilarli darajada ta`sir qiladi. Ular ruhiy jarayonlarning qonuniyatlarini, holatlari va asosiy shaxsiyat xususiyatlarini nomoyon qila olmaydi va bu holat ko`pincha turli ruhiy buzilishlarga olib keladi. Ko`zi ojiz shaxslar psixikasining o`ziga xos xususiyatlarini aniqlash jarayonida tananing boshqa a`zolarida mavjud bo`lgan patalogik o`zgarishlar umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanishni yanada murakkablashtiradi.
- Ko`zi ojiz shaxslar psixikasini o`rganishning murakkabligi shundan iboratki, ushbu shaxslarning rivojlanish ko`rsatkichi kasalliklar xususiyati jihatidan ham, asosiy ko`rish funksiyalarining buzilish darajasida ham juda xilma-xildir. Ko`rlikning paydo bo`lishi vaqtin shaxslarning rivojlanishi uchun juda muhimdir:
 - Tug`ma ko`zi ojiz – bu guruhga nutq shakllanishidan oldin ko`rish qobiliyatini yo`qotgan odamlar kiradi. Bu toifadagi shaxslarda ko`rish qobiliyati taxminan uch yoshgacha yo`qolgan bo`ladi;
 - Orttirilgan ko`zi ojizlik – hayotning keyingi davrlarida ko`rish qobiliyatini yo`qotgan va u yoki bu darajada xotirasida vizual tasvirlar saqlanib qolgan shaxslar. Ko`rish funksiyalari qanchalik kech buzilgan bo`lsa, psixikaning turli jihatlari rivojlanishi va namoyon bo`lishiga ta`siri shunchalik kam bo`ladi.¹

Ko`zi ojizlar va zaif ko`rvuchi shaxslar psixikasi sog`lom shaxslar ruhiyatidan sezilarli darajada farq qilmaydi. Ammo ko`rishning ulkan roli tufayli faoliyat jarayonida ba`zi o`ziga xos xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin. Ko`rish funksiyasining yo`qolishi yoki chuqur buzilishi avvalambor faoliyatning asosiy xususiyati bo`lgan insonning aks ettiruvchi faoliyatiga ta`sir qiladi. Ayniqsa, ko`rishning sezilarli darajada buzilishi yo`nalish va qidiruv faoliyatini murakkablashtiradi. A.G.Litvak bu hodisani faoliyatning rivojlanishi nafaqat shaxsni o`rab turgan narsani bilish ehtiyojini qondirish qobiliyatiga, balki faoliyat yo`naltirish motivining paydo bo`lishiga yordam beradigan tashqi ta`sirlarga bog`liqligi bilan izohlaydi.² Vizual funksiyalar buzilganligi va natijada fazoviy harakatlanish qobiliyati cheklanganligi sababli ko`rish qobiliyati past bo`lgan va ayniqsa zaif

¹ Литвак, А.Г. Реабилитация и интеграция инвалидов по зрению /А.Г.Литвак //Диагностика, профилактика и коррекция нарушений развития детей с ограниченными возможностями здоровья. - СПб., 1999.

² Литвак, А.Г. Эмоциональные состояния ослепших / А.Г.Литвак //Диагностика, развитие и коррекция сенсорной сферы лиц с нарушениями зрения. - М.Д - 1997.



ko`rvuchi bolalarga bunday ta'sirlar soni keskin kamayadi. Faoliyatning eng sezilarli pasayishi maktabgacha va kichik mакtab yoshda kuzatiladi.

L.I.Solntseva zaif ko`rvuchi bola rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlarini qayd etib, shunday yozadi: "Zaif ko`rvuchi bola umumiy rivojlanishining bir muncha sekinlashishi g`oyalar zaxirasining kichikroq va kambag`alligi, motorli sohaning yetarli darajada mashq qilinmasligi, o`zlashtirishning cheklanganligi, kosmik va eng muhimmi atrofdagi dunyonni bilishda kamroq faollik bilan bog`liq".

Tiflopsixologlar vizual nuqsonlar negativizm, dangasalik, qo`rroqlik va boshqa bir qancha salbiy harakter xususiyatlarini rivojlanishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Biroq ko`zi ojiz bolani o`qitishning to`g`ri tashkil etilishi bilan vizual analizator holatining qay darajada rivojlanganidanqat`iy nazar mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo`ladi, shaxsning ijobiy xususiyatlarini shakllantirish, muloqot qilish va shaxslararo munosabatlarda bir qator ijobiy natijalarga erishish uchun motivatsiya bo`lib xizmat qiladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalarni ijtimoiy va psixologik qo`llab-quvvatlashning katta rolini ta'kidlab, L.S.Vigotskiy, imkoniyati cheklangan bolalarning "nuqsonlari tufayli rivojlanishda sog`lom shaxslardan ortda qolishni to`xtatadigan vaqt keladi, chunki nuqson - bu ijtimoiy tushuncha. Ijtimoiy muhit va ta`lim nuqsonni yengadi" deb yozgan edi.³

Ko`rish qobiliyati cheklangan odamlarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi hozirgi vaqtida tiflopsixologiyaning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida yopiq joyda yashash (ko`pincha bu ko`zi ojizlar maxsus mакtab -internat), ko`zi ojiz va zaif ko`rvuchi bolalar mustaqil va to`liq ijtimoiy hayot bilan shug`ullanish imkoniyatidan mahrum bo`lib qoladilar. Maxsus maktablarning maqsadlari va vazifalari ko`pincha intellektual rivojlanishni jadallashtirish va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish va boshqa ta`lim muassasalariga kirish imkoniyatini beradigan bilim va g`oyalarni shakllantirish bilan chegaralanadi. Mutaxassislarning fikrlariga ko`ra, yopiq turdagи o`rta maxsus ta`lim muassasalari bitiruvchilari ko`plab psixologik qiyinchiliklarni va ularning sog`lom odamlar jamiyatiga qo`shilish bilan bog`liq muammolarni boshdan kechirishadi. Tiflopsixologiyadagi integratsiya tushunchasi ko`rish qobiliyati past bo`lgan odamning normal ko`radigan odamlar bilan teng ravishda jamiyatga kirish jarayonini nazarda tutadi. Maxsus ta`lim muassasalarining tashqi dunyodan uzoqligi va izolyatsiyasi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy tajribasini cheklaydi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Buning natijasi nafaqat ko`rish nuqsoni bo`lgan shaxsning fazodagi harakatini qiyinlashtiradi, balki unda turli ruhiy muammolar kelib chiqishiga sabab bo`ladi.

Vizual buzilish imkoniyati cheklangan bolaning atrofdagi haqiqatga tanlangan munosabati doirasiga ta'sir qiladi, uni patologiyaning chuqurligiga qarab toraytiradi. Shu bilan birga, vizual nazoratsiz muvaffaqiyatli amalga oshiriladigan faoliyatning ayrim turlariga qiziqishlar oddiy ko`rish qobiliyatiga ega bo`lgan odamlar singari chuqr, barqaror va samarali bo`lib chiqadi. Shunday qilib, ta`limni rivojlantirishda psixikaning tarkibiy qismi ko`rish nuqsonlaridan mustaqil. Binobarin, ko`zi ojiz

³ Выготский, Л.С. Собр. соч. В 6-ти т. /Д.С.Выготский. / М.: Педагогика, 1983.



odamlar orasidagi, hatto undan ham ko`proq zaif ko`rvuchi va ko`rish qobiliyati past odamlar o`rtasidagi farqlarni faqat turli xil shaxsiyat xususiyatlarini shakllantirish dinamikasida kuzatish mumkin. Aksariyat zaif ko`rvuchi va ko`zi ojiz bolalar uchun ijtimoiy guruhga kirishning birinchi tajribasi maktabga kirishdir. Mutaxassislarning fikriga ko`ra, kelajakda jamiyat bilan birlashish imkoniyati maktab guruhida zaif ko`rvuchi bola shaxsiyatining rivojlanishi qanchalik muvaffaqiyatli bo`lishiga bog`liq. Shu nuqtai nazardan, zaif ko`rvuchi va ko`zi ojiz bolalarga maktabga qabul qilingan paytdan boshlab ularni manzilli psixologik qo`llab-quvvatlashni tashkil etishning dolzarbliги kuchaymoqda, shu asosda psixologlar va tiflopedagoglar barcha bosqichlarda ijtimoiy va psixologik moslashishda qiyinchiliklarni kamaytirishga harakat qilishadi.

Ko`zi ojiz va zaif ko`rvuchi shaxslarning rivojlanishidagi asosiy qonuniyatlarni nazariy tahlilini sarhisob qilar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktab-internatda tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalarda ijtimoiy-psixologik moslashuv buzilishining oldini olish uchun maxsus diagnostik va korreksion metodikalardan foydalangan holda qo`llab-quvvatlash, maxsus mакtabni tugatganlaridan keyin ularda ijtimoiy qo`rquv kuchli bo`lmasligi uchun professional psixologlar tomonidan sotsial psixologik va muloqotchanlik ko`nikmalarini oshiruvchi trening mashg`ulotlari muntazam o`tkazilib turilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.M.Sultonova, L.SH.Nurmuxamedova, SH.M.Amirsaidova. Tiflopedagogika O'quv qo'llanma. Toshkent – 2007.
2. А.Г.Литвак. Диагностика, развитие и коррекция сенсорной сферы лиц с нарушениями зрения. - М.Д – 1997.
3. А.Г.Литвак. Диагностика, профилактика и коррекция нарушений развития детей с ограниченными возможностями здоровья. – СПб. 1999.
4. Д.С.Выготский. / М.: Педагогика, 1983.